

XAVFSIZ MIGRATSIYA NIMA?

**Samadova Shohida Nabijon qizi**

*Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti 3-bosqich talabasi*

**Kirish:** *Globalizatsiya sharoitida migratsiya jarayonlari tobora kengayib, xalqaro hamkorlik va ijtimoiy barqarorlik masalalarining ajralmas qismiga aylanmoqda. Har yili millionlab insonlar yaxshiroq hayot, mehnat yoki ta'lim izlab boshqa mamlakatlarga ko'chmoqda. Xavfsiz migratsiya nafaqat migrantlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga xizmat qilishi bilan birga ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim omil hisoblanadi. Migratsiyani boshqarish siyosatida xavfsizlik, qonuniylik va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan yondashuv zarurdir.*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada xavfsiz migratsiya tushunchasi, uning ijtimoiy Obarqarorlikka ta'siri, migrantlarning huquqlari va davlat tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar yoritiladi. Xalqaro tajriba hamda O'zbekiston Respublikasining migratsiya siyosati misolida qonuniy va xavfsiz migratsiya yo'nalishlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, migratsiya jarayonlarida inson huquqlarining ta'minlanishi va ijtimoiy himoya masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.*

“Migratsiya – bu muammo emas, balki insoniyatning rivojlanish imkoniyatidir. Muhimi, uni xavfsiz, tartibli va qonuniy shaklda boshqarishdir.”

BMT bosh kotibi Antonio Gutterish

Migratsiya bugungi kunda davlatlararo muhim jihatga aylanib ulgurgan va o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Migratsiyaning ahamiyati haqida so'z ochishdan oldin, „Migratsiya nima?“ „Migratsiya qachon paydo bo'lgan?“ degan savollarga javob topamiz. Migratsiya lotincha so'zdan olingan bo'lib „migratio“ „ko'chish“ degan ma'noni anglatadi.. Migratsiya — bu insonlarning doimiy yashash joyidan chiqib, yangi hududga yoki boshqa davlatga, chegaralarni kesib o'tgan holda ko'chib o'tishidir. Insonlar o'rtasida migratsiyaning vujudga kelishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Dastlab migratsiyaning vujudga kelishining asosiy sababi tabiiy ehtiyoj, oziq ovqat uchun bo'lsa XIX-XX asrlarga kelib mehnat qilish, siyosiy va iqtisodiy sabablar asosida shakllanib bordi. Migratsiya tarixi ko'p asrlar davomida odamlar joydan-joyga ko'chib o'tishining keng ko'lamli jarayonini o'z ichiga oladi, bu esa madaniyatlar, iqtisodiyotlar va jamiyatlarni o'zgartirib yuborgan. Ba'zi muhim tarixiy hodisalar: qadimgi ko'chmanchilik, ommaviy migratsiya davrlari va so'nggi yillarda migratsiyani tartibga soluvchi va boshqaruvchi xalqaro tashkilotlarning xususan Xalqaro Mehnat Tashkilotining tashkil etilishiga sabab bo'ldi. <sup>1</sup>

Xalqaro mehnat tashkiloti- Birlashgan Millatlar tashkilotining ixtisoslashgan muassasi hisoblanib, dastlab 1919-yilda Millatlar ligasi huzurida mehnat qonunlari bo'yicha munosabatlarni tartibga solish va mehnat sharoitlarini yaxshilash maqsadida

<sup>1</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro\\_migratsiya\\_tashkiloti](https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_migratsiya_tashkiloti)

hujjatlarni ishlab chiquvchi komissiya sifatida tashkil etilgan.<sup>2</sup> 1951 -yilda esa Xalqaro Mehnat Migratsiyasi Tashkiloti tashkil etildi . 2016-yildan boshlab BMT ning ixtisoslashgan agentligi sifatida faoliyat yurita boshladi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda Markaziy Osiyodagi eng ko'p migrant va aholi jo'natuvchi davlat sifatida O'zbekiston keltirilgan. O'zbekistonlik migrantlarning eng ko'p boradigan davlatlar ro'yxati mavjud bo'lib, bular jumlasiga Turkiya, BAA, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi , Korea Respublikasi tashkil qilar ekan.<sup>3</sup>

Muhajirlarning katta qismi esa aynan mehnat munosabatlarini amalga oshirish uchun ketishadi. Xo'sh, O'zbekiston migrantlarning huquqlarini kim himoya qiladi?

Bugungi kunda migratsiya sohani isloh qilish bo'yicha bir nechta milliy qonunchilik hujjatlari qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentabrdagi „Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora tadbirlari to'g'risida“gi PQ-4829-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-aprel „ Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida“gi PF-59-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yildagi 17-oktabrdagi „ Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida“gi PF-162-son Farmoni qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasida xavfsiz migratsiyani ta'minlash maqsadida Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tugatilib, 2024-yilda Vazirlar Mahkamasi huzurida Migratsiya agentligi tashkil etildi. Migratsiya agentligi fuqarolarning xorijda qonuniy ishlashi, huquqlarini himoya qilish, ishchi vizalarini rasmiylashtirish, shartnomalarni nazorat qilish bilan shug'ullanadi. Migratsiya agentligi tomonidan „Xorijda ish “ platformasi tashkil etildi va ushbu ilova orqali barcha ish o'rinlari ochiq e'lon qilish yo'lga qo'yildi. „Xorijda ish“ platformasi fuqarolar uchun birqator qulayliklar yaratdi ya'ni har bir fuqaro bu platformaga kirishi ish uchun joyni tanlashi, bepul konsalting xizmatidan foydalanishi, ish yoki viza uchun kerakli huquqiy ma'lumotlar olishi, chet elga mehnat qilmoqchi bo'lgan fuqarolar esa o'quv kurslarga yozilish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Bu holat esa migrantlarning huquqlarini buzilishini oldini olish bilan bir qatorda ularning xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlab berdi.

Migratsiya jarayonlarini huquqiy tartibga solish, mehnat migrantlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni noqonuniy mehnat bozorlari va firibgarlikdan asrash xavfsiz migratsiyaning poydevorini tashkil etadi. Shu bois, xavfsiz migratsiya nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki inson huquqlarini himoya qilishning samarali kafolati sifatida ham maydonga chiqadi. Xulosa qilib aytganda, xavfsiz migratsiya – bu nafaqat davlat siyosati, balki jamiyat va har bir fuqaroning ongli va mas'uliyatli ishtirokini talab etadigan murakkab jarayondir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

<sup>2</sup> <https://www.moon.uz-uz.nina.az/wiki/xalqaro-mehnat-tashkiloti.html>

<sup>3</sup> [https://dtm.iom.int/uzbekistan?utm\\_source](https://dtm.iom.int/uzbekistan?utm_source)

- 1.<sup>1</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro\\_migratsiya\\_tashkiloti](https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_migratsiya_tashkiloti)
- 2.<sup>1</sup> <https://www.moon.uz-uz.nina.az/wiki/xalqaro-mehnat-tashkiloti.html>
3. [https://dtm.iom.int/uzbekistan?utm\\_source](https://dtm.iom.int/uzbekistan?utm_source)
4. <https://www.un.org>
5. <https://www.iom.int>
6. <https://www.ilo.org>
7. <https://president.uz>
8. <https://lex.uz>
9. <https://gov.uz>
10. <https://migration.uz>
11. <https://xorijdaish.uz>
12. <https://stat.uz>
13. <https://www.undp.org>